MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING 5K KOMPETENSIYALARINI ADAPTIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim
pedagogikasi kafedra o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)
himoyevas@gmail.com

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 5K kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy hamda metodik jihatlari tadqiq etilgan. Unda tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, samarali kommunikatsiya, hamkorlikda faoliyat yuritish va madaniy muloqot kabi kompetensiyalarning boshlang‘ich ta’lim mazmunidagi o‘rni hamda ularni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, adaptiv ta’limning o‘quvchilarning bilim darajasi, individual qobiliyatlari, o‘zlashtirish sur’ati va ta’limiy ehtiyojlariga muvofiq o‘quv jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, differensial, individual hamda adaptiv yondashuvlarning integratsiyasiga tayanilgan. Ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish asosida boshlang‘ich ta’limda 5K kompetensiyalarini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot yakunida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda 5K kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan adaptiv pedagogik model ishlab chiqilgan. Model diagnostika, ta’lim mazmunini moslashtirish, amaliy faoliyat, refleksiya va natijalarni baholash kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va kompetensiyaviy rivojlanishiga metodik jihatdan ko‘maklashishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, 5K kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, madaniy muloqot, adaptiv ta’lim, individuallashtirish, differensial ta’lim, ta’lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv.*

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА РАЗВИТИЯ 5К-КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ АДАПТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В статье рассматриваются научно-теоретические и методические аспекты использования адаптивных образовательных технологий в развитии 5К-компетенций учащихся начальных классов. Раскрывается содержание таких компетенций, как критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество и культурное взаимодействие, а также определяются возможности их формирования в условиях начального образования. Особое значение придаётся организации адаптивного учебного процесса с учетом уровня знаний учащихся, их индивидуальных способностей, темпа освоения учебного материала и образовательных потребностей. Методологическую основу исследования составило сочетание компетентностного, личностно-ориентированного, дифференцированного, индивидуального и адаптивного подходов. На основе анализа научно-педагогических источников выявлены существующие возможности развития 5К-компетенций в системе начального образования. В рамках исследования разработана адаптивная педагогическая модель, ориентированная на развитие указанных компетенций с учетом индивидуальных характеристик младших школьников. Предлагаемая модель включает взаимосвязанные этапы диагностики, адаптации содержания и способов обучения, организации практической деятельности, рефлексии и оценки образовательных результатов. Представленный подход может способствовать повышению активности учащихся и созданию условий для их компетентностного развития в начальной школе.

Ключевые слова: *начальная школа, 5К-компетенции, критическое мышление, креативность, коммуникация, сотрудничество, культурное взаимодействие, адаптивное обучение, индивидуализация, дифференциация, образовательные технологии, компетентностный подход.*

THEORY AND PRACTICE OF DEVELOPING 5C COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ADAPTIVE LEARNING TECHNOLOGIES

The article focuses on the theoretical and methodological aspects of applying adaptive learning technologies to the development of 5C competencies in primary school students. It explores the educational significance of critical thinking, creativity, communication, collaboration, and cultural interaction and examines the conditions for fostering these competencies within primary education. Particular emphasis is placed on adapting the learning process to students’ prior knowledge, individual abilities, learning pace, and educational needs. The methodological framework of the study integrates competency-based, learner-centered, differentiated, individualized, and adaptive approaches. The analysis of relevant scientific and pedagogical literature made it possible to identify existing opportunities for promoting 5C competencies in primary education. Based on the findings, an adaptive pedagogical model was developed to support competency development while taking into consideration the individual characteristics of young learners. The model incorporates interconnected stages of diagnosis, adaptation of learning content and methods, practical activity, reflection, and assessment of learning outcomes. The proposed approach may contribute to increasing students’ engagement and creating favorable conditions for competency-oriented development in primary education.

Keywords: *primary school, 5C competencies, critical thinking, creativity, communication, collaboration, cultural interaction, adaptive learning, individualization, differentiated instruction, educational technologies, competency-based approach.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim natijalarini faqat o‘quvchining bilimlarni qay darajada o‘zlashtirgani bilan baholash yetarli emas. Bugungi kunda o‘quvchining olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z fikrini asoslab berishi, boshqalar bilan hamkorlik qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va o‘z faoliyatini tahlil qilishi muhim kompetensiyaviy natijalar sifatida qaralmoqda. OECDning Learning Compass 2030 konsepsiyasida ham kelajak ta’limining muhim yo‘nalishlari sifatida bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning uyg‘unligi, o‘quvchining faolligi hamda mustaqil harakat qila olish qobiliyati ta’kidlanadi.

Mazkur jarayonda boshlang‘ich ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining o‘qishga munosabati, fikrlash usullari, muloqot madaniyati, jamoada ishlash odatlari, ijodiy yondashuvi va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va ta’lim jarayonini moslashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

O‘zbekistonda ham boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, U.H. Hayitovning ilmiy tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetensiyalarini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirish va rivojlantirish masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning axborot bilan ishlash, nutqiy va lingvistik, ijodiy fikrlash hamda mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim platformalari va mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. T.M. Sultanov tadqiqotida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘yin texnologiyalari asosida ta’limga adaptatsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda ta’limga moslashtirish, o‘quv-bilish faoliyatiga jalb etish, kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liq mexanizmlar va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. 5K modeli doirasida O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlardan yana biri texnologiya fanida o‘quvchilarning dizayn va konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik, kommunikativlik va madaniy muloqot komponentlari 5K modeli sifatida belgilangan. boshlang‘ich ta’limda 5K kompetensiyalarini rivojlantirish va adaptiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko‘pincha alohida yo‘nalishlar sifatida o‘rganilgan. Ularni yagona metodik tizimga birlashtirish, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchisining individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda 5K kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish masalasi yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5K kompetensiyalarini adaptiv ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini aniqlash hamda uni amaliyotga joriy etishning pedagogik modelini ishlab chiqish.

Maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

- 5K kompetensiyalarining mazmun-mohiyatini boshlang‘ich ta’lim nuqtayi nazaridan aniqlash;

- adaptiv ta’lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini ochib berish;
- 5K kompetensiyalarini rivojlantirish va adaptiv ta’limning o‘zaro bog‘liqligini asoslash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga oluvchi adaptiv topshiriqlar tizimini tavsiflash;
- 5K kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;
- mazkur modelni boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, differensial, individual va adaptiv yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi tashkil etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga urg‘u beradi. Bunda ta’lim natijasi o‘quvchining ma’lum mavzuni eslab qolishi bilan emas, balki mazkur bilimdan foydalanib muayyan vazifani hal qila olishi bilan belgilanadi. OECDning zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida ham kompetensiyalar bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida talqin qilinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘radi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi, tayyorgarligi, diqqatni jamlash imkoniyati va mustaqil ishlash darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq va bir xil ta’limiy yordamni taklif qilish har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Adaptiv yondashuv ana shu muammoni hal qilishga xizmat qiladi. Unda o‘qituvchi o‘quvchining dastlabki holatini diagnostika qiladi, uning ehtiyojini aniqlaydi, mos topshiriqni tanlaydi, faoliyat natijasini kuzatadi va keyingi ta’limiy ta’sirni olingan natijaga qarab o‘zgartiradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- dissertatsiya va avtoreferatlarni kontent-tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish;
- o‘quv topshiriqlarini diagnostik tahlil qilish;
- suhbat va so‘rovnoma;
- o‘quvchilarning ijodiy ishlarini tahlil qilish;
- pedagogik tajriba-sinov;
- kompetensiya indikatorlari asosida baholash;
- natijalarni qiyosiy va statistik tahlil qilish.

Adaptiv ta’limning metodologik asoslaridan biri sifatida universal dizayn tamoyillaridan ham foydalanish mumkin. CAST tomonidan ishlab chiqilgan Universal Design for Learning 3.0 yondashuvi o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim muhitini moslashtirishga qaratilgan. Bunda adaptivlik faqat raqamli texnologiya bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi tomonidan topshiriq murakkabligini o‘zgartirish, qo‘shimcha tayanch berish, topshiriqni qismlarga ajratish, boshqa shakldagi topshiriqni taklif qilish yoki mustaqillik darajasini oshirish ham adaptiv ta’limning metodik ko‘rinishlari hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. U.H. Hayitovning tadqiqoti bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetensiyalarini innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirishga bag‘ishlangan. Unda kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron kutubxona, virtual va intellektual muhit, robototexnika, masofaviy ta’lim, LMS, MOOC va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Mazkur tadqiqotning bizning mavzuimiz uchun ahamiyati shundaki, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kompetensiyaviy rivojlanishini raqamli texnologiyalar bilan bog‘lash mexanizmlari mavjud. Biroq 5K kompetensiyalarini aynan adaptiv topshiriqlar tizimi orqali kompleks rivojlantirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratilmagan.

Bir nechta tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limga adaptatsiyasi o‘yin texnologiyalari asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarni o‘quv-bilish faoliyatiga moslashtirish, kommunikativ kompetensiya bilan qayta aloqa, o‘qituvchining instruktorlik, kuzatuvchilik, qo‘llab-quvvatlovchilik va boshqaruvchilik funksiyalari hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari yoritilgan.

Bu natijalar adaptiv ta’lim uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki adaptiv ta’limda ham o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi faoliyatini kuzatuvchi, ta’limiy yordamni moslashtiruvchi va individual rivojlanishni boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

5K modeli bo‘yicha O‘zbekistondagi tadqiqotlardan birida Critical Thinking, Creativity, Collaboration, Communication va Connected-Culture komponentlari asosida o‘quvchilarning dizayn va

konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi o‘rganilgan. Ushbu modelni boshlang‘ich ta’limga moslashtirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Xorijiy ilmiy-pedagogik manbalarda ham zamonaviy ta’limda kompetensiyalarga yo‘naltirilgan yondashuv keng o‘rganilgan. OECD Learning Compass 2030 o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, farovonligi va kelajakda zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni rivojlantirishni ta’limning muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi.

Raqamli va adaptiv texnologiyalar masalasida UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring Report hisobotida texnologiyaning ta’limdagi roli, uning imkoniyatlari va cheklovlari, tenglik va inklyuziya masalalari muhokama qilingan. Hisobotda texnologiyadan foydalanish ta’lim oluvchining manfaatlari va ehtiyojlariga mos bo‘lishi, insoniy muloqotning o‘rnini to‘liq bosmasligi kerakligi ta’kidlanadi.

Sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim vositalaridan foydalanish masalalarida UNESCO ta’limda AI texnologiyalarining imkoniyatlari bilan bir qatorda xavflari, inklyuziya va tenglik masalalarini ham hisobga olish zarurligini qayd etadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili uchta muhim xulosani beradi. Birinchidan, kompetensiyaviy ta’lim zamonaviy boshlang‘ich ta’limning muhim metodologik yo‘nalishlaridan biridir. Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim shartdir. Uchinchidan, raqamli va adaptiv texnologiyalar ushbu ikki yo‘nalishni integratsiyalash imkoniyatiga ega, biroq texnologiya pedagogik maqsadga bo‘ysundirilishi lozim.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston ilmiy-metodik manbalarida qo‘llangan 5K modeliga yaqin tarzda beshta komponent ajratiladi: tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, hamkorlik va madaniy muloqot. Bu komponentlar o‘zaro bog‘langan holda o‘quvchining yaxlit kompetensiyaviy rivojlanishini ta’minlaydi.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchining ma’lumotni tahlil qilishi, savol berishi, dalillarni taqqoslashi, sabab va oqibatlarni aniqlashi hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Boshlang‘ich sinfda bu kompetensiyani rivojlantirish uchun “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Boshqa yo‘l bilan yechish mumkinmi?”, “Qaysi javobni to‘g‘ri deb hisoblaysan va nima uchun?” kabi savollardan foydalanish mumkin.

Kreativlik yangi g‘oya yaratish, mavjud vazifaga noodatiy yondashish va muammoning bir nechta yechimini taklif qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich ta’limda hikoyani davom ettirish, rasm asosida yangi voqea yaratish, masalaga bir nechta yechim topish, konstruktorlik va loyihaviy topshiriqlar kreativlikni rivojlantiradi.

Kommunikativ kompetensiya o‘quvchining o‘z fikrini aniq ifodalashi, savol berishi, suhbatdoshini tinglashi va fikr almashishi bilan tavsiflanadi. Bunda juftlikda ishlash, dialog, rolli o‘yin, taqdimot va guruh muhokamasi samarali vosita bo‘la oladi.

Hamkorlik kompetensiyasi umumiy maqsadga erishish uchun boshqa o‘quvchilar bilan kelishish, vazifalarni taqsimlash, sheriklarining fikrini tinglash va umumiy qaror qabul qilishni anglatadi.

Madaniy muloqot esa turli fikrlar, qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajribalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zining milliy-madaniy qadriyatlarini anglash va boshqalar bilan madaniyatlararo muloqotga kirisha olish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur kompetensiyalarni alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Masalan, guruhli muammoli topshiriq o‘quvchidan bir vaqtning o‘zida tanqidiy fikrlash, kreativ yechim topish, o‘z fikrini ifodalash va guruh bilan hamkorlik qilishni talab qiladi.

Adaptiv ta’lim texnologiyalarining 5K kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari

Adaptiv ta’limning asosiy mohiyati o‘quvchiga mos ta’limiy ta’sirni tanlashdan iborat. Bunda “bir xil topshiriq – bir xil metod – bir xil natija” tamoyili o‘rniga “diagnostika – moslashtirish – faoliyat – qayta aloqa – qayta moslashtirish” sikli qo‘llanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lganligi sababli topshiriqlarni kamida uch darajada tashkil etish mumkin:

A daraja — tayanchli topshiriq**.** O‘quvchiga namunalar, tayanch so‘zlar, algoritmlar yoki yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

B daraja — mustaqil topshiriq. O‘quvchi vazifani minimal pedagogik yordam bilan bajaradi.

C daraja — ijodiy-muammoli topshiriq**.** O‘quvchidan mustaqil qaror, bir nechta yechim yoki yangi g‘oya talab qilinadi.

Masalan, o‘qish darsida bir xil matn asosida uch xil topshiriq tashkil etilishi mumkin. A darajadagi o‘quvchi matndan tayyor ma’lumotni topadi; B darajadagi o‘quvchi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi; C darajadagi o‘quvchi esa matn voqealariga boshqa yakun taklif qiladi.

Bunday tashkil etish tanqidiy fikrlash va kreativlikni bir vaqtda rivojlantiradi. Guruhli muhokama esa kommunikatsiya va hamkorlik kompetensiyalarini faollashtiradi.

Adaptiv ta’limda feedback muhim o‘rin tutadi. Feedback faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” degan bahodan iborat bo‘lmasligi kerak. O‘quvchiga xatosining sababi, keyingi harakati va yaxshilash imkoniyati tushuntirilishi kerak. Shu jihatdan adaptiv ta’lim o‘quvchining refleksiv kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari va ilmiy manbalar tahlili 5K kompetensiyalarini rivojlantirishda adaptiv yondashuvning bir qator pedagogik imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Birinchidan, adaptiv ta’lim o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinfda bir xil topshiriqni turli o‘quvchilar turlicha tezlikda va turli darajada bajarishi tabiiy. Shu sababli topshiriqlarning murakkabligini moslashtirish o‘quvchining o‘z imkoniyatidan kelib chiqib rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, adaptiv yondashuv 5K kompetensiyalarini rivojlantirishni individual va guruhli faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchi dastlab individual topshiriqni bajaradi, keyin juftlikda o‘z yechimini muhokama qiladi va yakunda guruh oldida natijasini himoya qiladi. Bunda tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik bir faoliyat doirasida rivojlanadi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar adaptiv ta’limning texnik imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron platformalar o‘quvchining javoblarini qayd qilish, natijalarni tahlil qilish va keyingi topshiriqlarni tanlash imkonini berishi mumkin. Biroq UNESCO hisobotlarida ham ta’kidlanganidek, texnologiyaning mavjudligi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini kafolatlamaydi; texnologiya ta’limiy maqsadga, pedagogik ehtiyojga va o‘quvchining manfaatlariga mos bo‘lishi lozim.

To‘rtinchidan, adaptiv texnologiyalar o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi. O‘qituvchi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki diagnost, moderator, fasilitator, maslahatchi va o‘quvchi faoliyatini boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Beshinchidan, adaptiv ta’limni tashkil etishda ortiqcha raqamlashtirishdan saqlanish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda real muloqot, harakat, o‘yin, kitob bilan ishlash, guruhli faoliyat va o‘qituvchi bilan bevosita muloqot raqamli vositalar bilan muvozanatli uyg‘unlashtirilishi kerak.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5K kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati, muloqotga kirishishi, jamoada ishlashi va muammoli vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adaptiv ta’lim texnologiyalari esa mazkur kompetensiyalarni o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, diagnostika, differensial topshiriqlar, individual ta’lim trayektoriyasi, raqamli resurslar va tezkor feedbackdan foydalanish 5K kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida qaralishi mumkin.

Shu sababli boshlang‘ich ta’limda **“5K kompetensiyalar + adaptiv ta’lim + raqamli texnologiyalar”** integratsiyasi asosida pedagogik model va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sultanov T.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘yin texnologiyalari asosida ta’limga adaptatsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari (umumta’lim maktablarining 1-sinflari misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2022.

2. Eshonqulova Sh.E. Mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.

3. Kenjaeva Z.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.

4. Saidova N.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.

5. Nuradilova A.D. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.

6. Soliyev I.S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.

7. Yo‘ldoshev J. G‘., Hasanov S. H. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009.

8. Mirxalilova N. A. Boshlang‘ich ta’limda funksional savodxonlik tushunchasi va funksional savodxonlik darajalarini oshirish yo‘nalishlari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – J. 4, № 7, maxsus son.–B.406–408.

9. Mirxalilova N., Usmanova M., Xunarova L. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy va metodik manbalari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2025.

10. Isag‘aliyeva S. M., Rasulova M. M. Zamonaviy ta’limda funksional savodxonlik va texnologiyalar uyg‘unligi // Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – 2-jild, 6-son, 2-qism. – B. 93–95.